

OSTEOLOGIYA BO'LIMINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Umirov Nurulla Usanovich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax katta o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Maqolaning maqsadi oliy ta'lim tizimida odam anatomiyasi fanini o'qitishda yuqori samaradorlikka erishish uchun interfaol usul va vositalar orqali ta'lim samaradorligini oshirish, ta'limni rivojlantirish bo'yicha ba'zi tavsiyalar berishdir.

**Kalit so'zlar:** Osteologiya, «Tez savolga — tez javob», «Tarmoqlar (Klaster)», «Matnni davom ettir», «Yelpig'ich», «Domino», «Raqamli diktant».

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan oliy ta'lim sohasi bo'yicha o'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq [1]. O'qituvchilik sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, talabalarning xilma xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas.

Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalar bayon etiladi, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi [2]. Universitet hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil, murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi.

Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak.

Pedagogik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, o'qituvchida talabalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo'lishi zarurdir [3].

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgani holda, ta'lim oluvchilarda bilim olishga va yangiliklarni puxta o'zlashtirishga ehtiyojini, shuningdek, asosiy o'quv-

ilmiy va umummadaniy bilimlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarkib toptirishni uzluksiz ta'lim jarayonining asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi.

Oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi — barcha sohalarda yetuk mutaxassis shaxsni tayyorlash, uning ijodiy, ruhiy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda axloqiy jihatdan mustahkam faol fuqaroni tarbiyalashdir.

Oliy ta'lim tizimidagi asosiy vazifalardan biri o'quv jarayoniga pedagogik innovatsion usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar(AKT)ni joriy qilish orqali zamon talabiga muvofiq ta'lim berish jarayonini keskin o'zgartirish bo'lib, uning asosini oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan fanlarning uslubiy tizimlarini yaratish tashkil etadi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol pedagogik texnologiyalardan uzluksizlik va uzviylik tamoyili asosida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ta'limning interfaol turi maktabgacha ta'lim bosqichidan to oliy ta'lim jarayonigacha ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur hamda tezkor faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ta'limning interfaol metodlaridan har bir bosqichda talabning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, tafakkur tarzini hisobga olgan holda foydalanish, aniq bir talabalar auditoriyasining o'ziga xos jihatlarini hisobga olish o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi [4].

Xususan:

- «Tez savolga — tez javob»;
- «Tarmoqlar (Klaster)»;
- «Matnni davom ettir»;
- «Yelpig'ich»;
- «Domino»;
- «Raqamli diktant» kabi metodlar oliy ta'lim tizimida ham muvaffaqiyatli

qo'llanib kelinmoqda va ulardan dars jarayonida foydalanish esa talabalarni darsga nisbatan qiziqishini oshiradi.

O'qituvchi talabning talab va ehtiyojlariga ko'ra ta'lim texnologiyalariga asta-sekin murakkab elementlarni kiritgan holda oqilona qo'llay bilishi lozim. Har bir pedagog shuni doimo yodda tutishi kerakki, hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari talabalarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va ijod qilishga yo'naltirilmog'i lozim.

Shuning uchun ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga nisbatan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usullar talabalarga tayyor bilimlarni o'zlari qidirib topib, mustaqil o'rganib, tahlil qilish va xulosalarni ham o'zlari chiqarishlari lozimidligini o'rgatadi.

Bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratiladi, talaba dars jarayonining asosiy ijrochisiga aylanadi. Interfaol usullar o'qituvchi-talaba hamda talabalarning o'zaro birgalikdagi harakatlaridir. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quv mashg'ulotining tashkilotchisi, rahbari va nazoratchisi vazifasini bajaradi.

Bunda talaba auditoriyada o'zini erkin his qilishi, o'quv faoliyati emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Oliy talim tizimida biologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar Biologiyaning asosiy fanlarini

chuqur o'zlashtirishlari lozim jumladan Odam anatomiyasi fani biologiya yo'nalishi talabalari uchun eng asosiy fanlardan biridir.


Odam anatomiyasi odam organizmining shaklini, tuzilishini, uning rivojlanish jarayonini o'rganadigan fan bo'lib, har bir a'zoni jinsiy va yosh jihatdan tafovut qilishini, shuningdek, atrof muhitning a'zolar tuzilishi va funksiyasiga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Odam anatomiyasining Osteologiya bo'limi – odam suyaklari haqidagi qismi hisoblanadi.

Osteologiya - bu suyaklarni, xususan ularning tuzilishi va funktsiyalarini o'rganish uchun mas'ul bo'lgan fan sohasidir. Bu atama yunoncha ildizlardan kelib chiqadi osteo, "suyak" degan ma'noni anglatadi va logotiplar, bu "bilim" yoki "fan" degan ma'noni anglatadi.

Oliy ta'lim tizimida keng ko'lamda qo'llaniladigan interfaol usullar bir qancha bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi hamda darsning maqsadiga bog'liq.

«Tez savolga — tez javob» usuli ham odam anatomiyasi darslarida qo'llash uchun qulay usullardan hisoblanadi. Uning afzal jihati kam vaqt talab qilishidir. Mazkur usul qo'llanilganda o'qituvchi savollarni tartib bilan o'qiydi. Talabalar esa tartib raqami va javobni yozadilar. Masalan: o'qituvchi (og'zaki): 1) Osteologiya deb nimaga aytiladi? — talaba (yozma ravishda): 1) Insonning suyaklarini o'rganadigan anatomiyaning bir bo'limiga osteologiya deb ataladi. Talabalar javobni bilmay, yoza olmasalar, tartib raqamining to'g'risiga minus ( — ) belgisini qo'yadilar. So'ngra o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qiydi, talabalar o'z ishlarini mustaqil tekshirib baholaydilar. Talabalarga ishonish, erkinlik berish, shu bilan birga, nazorat qilib borish ularda adolatlilik, rostgo'ylik fazilatlarini tarbiyalaydi [5].

«Tarmoqlar (Klaster)» metodida esa biror-bir mavzuni chuqur o'rganish avvalo talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirishga hamda oshirishga xizmat qiladi. Mazkur usulni qo'llashdan maqsad mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish va umumlashtirishga qaratilib, bunda talabalarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlari chizma asosida ifodalanadi. Masalan: «Tana suyaklari» mavzusi bo'yicha berilgan matn asosida klaster chiziladi.



Yuqorida keltirilgan barcha metodik texnologiyalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol usullardan foydalanib dars o'tilganda guruhda qoloq, o'zlashtirmaydigan talaba qolmaydi. Deyarli barcha talabalar dars jarayoniga jalb etilib,

ularning darsga qiziqishlari ortadi. Bunday darslar talabalarning mustaqil bilim olishlari mutaxassisliklarini chuqurroq o'rganishlariga, ayniqsa, guruh talabalarining fikrlash qobiliyatlarini oshirishga katta yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 bet.
3. Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. - Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 202-bet.
4. Tolipov O. Q., Usmonboyeva M. U. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — T.: Fan, 2006. — 262 b.
5. Yo'ldoshev J. G., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. — T.: Fan va texnologiyalar, 2008. 132–134 b.